

"O'zkimyosanoat" AJ hamda Hindistonning "IPL Biologicals Limited" kompaniyasi o'rtasida, hamkorlikda "UzIPLBiologicals" MChJ shaklidagi qo'shma korxonani tashkil etish yuzasidan tegishli hujjatlar imzolandi

// 31 May 2023 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uziplbiologicals>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son qaroriga muvofiq "O'simliklarni himoya qilishga mo'ljallangan vositalar ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasini amalga oshirish belgilangan bo'lib, mazkur loyihani amalga oshirish doirasida "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan o'tkazilgan muzokaralar va o'rganishlar natijasida, ushbu yo'nalishda yetakchilardan hisoblangan Hindistonning "IPL Biologicals Limited" kompaniyasi o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

2023-yilning 30-may kuni "O'zkimyosanoat" AJda Hindistonning "IPL Biologicals Limited" kompaniyasi bilan hamkorlikda "UzIPLBiologicals" MChJ shaklidagi qo'shma korxonani tashkil etish bo'yicha tegishli hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.



Ta'kidlab o'tish lozim, "O'simliklarni himoya qilishga mo'ljallangan vositalar ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasini amalga oshirish dolzarbligi hamda iqtisodiy jihatdan samaradorligi bilan ham ahamiyatlidir. Biomoddalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uni amaliyotga to'g'ri joriy qilish natijasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda samarali natijalarga erishiladi.



Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "IPL Biologicals Limited" xususiy kompaniya bo'lib, bosh ofisi Nyu-Dehli shahrida joylashgan. Kompaniya 1994-yildan buyon tabiiy mikroorganizmlarga asoslangan ekinlarning chidamliligini boshqarishda tuproq salomatligi, hosildorlik va sifatni yaxshilashga qaratilgan biologik mahsulotlarni ichki laboratoriya tadqiqotlari orqali ishlab chiqadi. "IPL Biologicals Limited" kompaniyasi 50 turdan ortiq mahsulot portfeliga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari kasalligi va zararkunandalarga qarshi kurash, o'simliklarning oziqlanishi va tuproqni boshqarish sohalarida yetakchi korxonalardan biridir.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati